

**Ta`lim muassasalari talaba va o‘quvchilari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari va tamoyillarini o‘rganish bo‘yicha olimpiadani o‘tkazish tartibi to‘g’risida**

**NIZOM**

**I.Umumiy qoidalari**

1. Mazkur nizom ta`lim muassasalari talaba va o‘quvchilari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari va tamoyillarini o‘rganish bo‘yicha olimpiadani (keyingi o‘rinlarda - Olimpiada) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Olimpiada ta`lim muassasalari talaba va o‘quvchilarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning asosiy prinsiplari va qoidalari bo‘yicha bilimlarini oshirishni rag‘batlantirish, hayotda munosib o‘rin topishlarida bosh qomusimizning ahamiyati va rolini tushunib olishlariga munosib sharoitlar yaratish maqsadida tashkil qilingan.

3. Olimpiadani o‘tkazishda bevosa raahbarlikni ta’lim muassasasida tuzilgan Tashkiliy guruh amalgga oshiradi.

Tashkiliy guruh olimpiada jarayonlarining yuqori saviyada adolatli va shaffof o‘tkazilishiga mas’ul hisoblanadi.

Shuningdek, olimpiada jarayonlarini moliyalashtirish bo‘yicha qo‘srimcha takliflar va qarorlar qabul qilishi mumkin.

4. Olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha Ishchi organ-olimpiadani o‘tkazadigan ta’lim muassasasi hisobanadi.

5. Olimpiadada baholash mezonlarini belgilash, hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi a`zolari tarkibini, shuningdek, Olimpiada g‘olibari va sovrindorlarini tasdiqlash Tashkiliy guruh tomonidan amalgga oshiriladi.

6. Olimpiadaning asosiy tili- o‘zbek yoki qoraqalpoq tillari.

**II. Olimpiada ishtirokchilari**

7. Ishchi organ ishtirokchilar (talaba va o‘quvchilar) uchun Olimpiada o‘tkaziladigan davr, joy va shartlari ko‘rsatilgan e’lon beradi.

8. Olimpiada ishtirokchilari (Tashkiliy guruh qaroriga ko‘ra) jamoa yoki yakka tartibda Ishchi organ toshonidan ro‘yxatga olinadi.

9. Jamoadagi ilmiy maslahatchi Ishchi organ qaroriga ko‘ra, Olimpiada ishtirokchilari uchun tuzilgan savol va topshiriqlarning tuzilishida, zarur hollarda bahsli vaziyatlarda yechimlar topilishida ishtirok etadi.

10. Qoidalarning buzilishi holatlari aniqlanganda, Ishchi organ olimpiadaning har qanday bosqichida jamoalar yoki ishtirokchilarga intizomiy ta’sir choralarini ko‘rishi, zarur hollarda diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega.

11. Olimpiada jarayonlarida va Olimpiada davrida tashkil qilingan madaniy tadbirlar, sayohatlar davomida ishtirokchilarga Ishchi organ tomonidan tayinlangan volontyorlar, tashkiliy ishlar bo'yicha mas'ul shaxslar hamrohlik qilishlari mumkin.

### **III. Olimpiada hakamlar hay'ati va apellyatsiya komissiyasi**

12. Hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokchi jamoalarning ilmiy maslahatchilari va Tashkiliy guruh vakillari orasidan tanlab olinib, Ishchi organ tomonidan tasdiqlangan 5 (besh) yoki 7 (yetti) nafar sohaning tajribali mutaxassislaridan iborat.

13. Apellyatsiya komissiyasi 3 (uch) kishidan iborat tarkibda Hakamlar hay'ati a`zolari orasidan tuziladi.

14. Olimpiada topshiriqlarini tuzish va tayyorlash vaqtida Ishchi guruh hakamlar hay'ati a`zolarining ishlashi, ovqatlanishi va dam olishi uchun zarur shart-sharoit bilan ta'minlaydi. Ushbu davrda hakamlar hay'ati a'zolari b'ilan aloqa faqat Ishchi organ tomonidan ruxsat berilgan kanallar orqali amalga oshiriladi.

15. Hakamlar hay'ati a'zolarini moddiy rag'batlantirish miqdori Tashkiliy guruh tomonidan belgilanadi va Olimpiada xarajatlari smetasiga kiritiladi.

### **IV. Olimpiadaning sarf-xarajatlari**

16. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazish b'ilan bog'liq sarf-xarajatlar smetasi (Ishtirokchi va hakamlar hay'ati a'zolari uchun ovqatlanish va turarjoy, taqdirlash va pul mukofotlari) Tashkiliy guruh tomonidan ishlab chiqiladi va olimpiada o'tkaziladigan ta'lif muassasasining budgetdan tashqari mablag'ları hisobidan qoplanadi.

17. Olimpiadaning rasmiy dasturidan tashqari sarflar xarajatlari smetasida ko'zda tutilmaydi.

### **V. Olimpiadani o'tkazish tartibi**

18. Olimpiada bosqichlarini, imtihon, savol va topshiriq turlarini Hakamlar hay'ati belgilaydi.

19. Hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan Olimpiadaning bellashuv qismi davomiyligi, savol va topshiriqlar soni Ishchi organ tomonidan tasdiqlanadi.

20. Hakamlar hay'ati Olimpiada topshiriqlarini tuzadi, ularni tekshirish va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

21. Bellashuvlaming asosiy qismida ishtirokchilarning aloqa vositalari yoki boshqa axborot manbalaridan foydalanishi taqilanganadi.

### **VI. Baholash mezonlari va olimpiada g'olibiarini aniqlash tartibi**

22. Hakamlar hay'ati ishtirokchilar tomonidan bajarilgan ishlarni tekshiradi, baholaydi va tegisli bayonnomani rasmiylashtirib, Ishchi organga taqdim qiladi.

23. Topshiriqlar tekshirilib, baholangach, natijalar bilan ishtirokchilar tanishtiriladi.

24. Baholashdan noroziliklar yuzaga kelganda, Apellyatsiya komissiyasi tomonidan ta1abgorning ishi qayta tekshiruvdan o‘tkaziladi va baholash mezonlariga mosligi aniqlanadi. Tekshiruv natijasi asosida Apellyatsiya komissiyasi bayonnomma tuzadi va hakamlar hay'atiga taqdim qiladi.

25. Yakuniy qaror hakamlar hay'ati tomonidan ovozga qo‘yish orqali chiqariladi. Ovozlar teng bo‘lganda, hakamlar hay'ati raisining ovozi hal qiluvchi hisobanadi.

26. Hakamlar hay`atining tekshiruv natijalari bayonnomasi asosida Ishchi organ g‘olibar bo‘yicha qaror qabul qiladi.

26. Bayonnomaning nusxalari barcha ishtirokchilarga berilishi mumkin.

## **VII. Olimpiada g‘olibiarini va ularning ilmiy rahbarlarini rag‘batlantirish tartibi**

27. Olimpiada g‘olibari ta’lim muassasalarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rag‘batlantiriladi.

## **VIII. Yakuniy qoidalar**

28. Olimpiadada homiylik qilish davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amaldagi qonunlar doirasida amalga oshirilishi mumkin.

29. Olimpiadaning Nizom talablari asosida o‘tkazilishini nazorat qilish vazirlikning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.